

**_____ - sonli elektr qurilmalariga xizmatlar ko'rsatish
SHARTNOMASI**

Qo'ng'irotdan kelgan

2023y. ____ - _____

Qo'ng'irotdan kelgan elektr ta'minoti masofasida korxonada NIZOMi asosida bir tomondan, bundan keyin "Pudratchi" deb yuritiladi, boshliq vazifasida A. T. Mamatxanov va ikkinchi tomondan _____ bundan keyin "Buyurtmachi" deb yuritiladi, boshliq vazifasida _____ lar ushbu shartnomani quyidagicha tuzdi

1. Shartnoma tafsiloti

1.1. "Pudratchi" "Buyurtmachi" ning yozma talabnomasiga muvofiq quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini oladi:

- Yuqori va past kuchlanishli elektr uzatish xavo liniyasini yayov ko'rikdan o'tkazish;
- Yuqori va past kuchlanishli elektr uzatish xavo liniyasi tayanchlarini almashtirish yoki og'gan tayanchlarni to'g'rilash;
- Yuqori va past kuchlanishli elektr uzatish xavo liniyasi tayanchlaridagi travers va izolyatorlarini taftishlash, to'g'rilash va almashtirish;
- Yuqori kuchlanishli elektr uzatish xavo liniyasi ajratgichini almashtirish yoki taftishlash;
- Kuch transformatorini taftishlash, ta'mirlash va butlov qismlarini almashtirish;
- Kuch transformatorining xolati va parametrlarini o'lchash;
- Kabel va simlarni almashtirish va ta'mirlash;
- Elektr o'lchov qurilmasini echish va qayta o'rnatish.

1.2. "Pudratchi" ish hajmi bo'yicha "Buyurtmachi" ishtirokida dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma asosida "Buyurtmachi"ga ish hajmi va qiymatlari ko'satilgan smeta taqdim qiladi.

1.3. Smetaga ikki tomonlama qo'l qo'yilganidan so'ng ishni bajarishga kirishiladi;

1.4. Ish bajarilganidan so'ng "Bajarilgan ishlar dalolatnomasi" tuzilib ikki tomonning vakillari tomonidan ishni qabul qilish va topshirish bandi imzolanganidan keyin ish tugallangan hisoblanadi;

1.5. Shartnoma muddati 2023-yil 25-oktyabrdan 2023-yil 31-dekabrgacha.

2. Shartnoma qiymati va to'lov shartlari

2.1. Shartnomaning taxminiy qiymati 10 000 000 (O'n million) so'm bo'lib o'z ichiga sarflangan materiallarni olmaydi.

2.2. Barcha kerakli materiallar "Buyurtmachi" tomonidan ta'minlanadi

2.3. "Buyurtmachi" bajarilgan ishlar uchun hisobvaraqa-fakturalari asosida o'z vaqtida to'lamaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lashi shart.

2.4. Xizmat ko'rsatilmagan taqdirda, "Pudratchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, lekin penyaning umumiy miqdori 50 foizdan oshmasligi kerak.

2.5. Ish boshlanmasidan oldin "Buyurtmachi" "Pudratchi" ga umumiy summaning dastlabki 30% miqdorida to'laydi.

2.6. "Buyurtmachi" ushbu shartnoma bo'yicha bajarilgan ish haqini ishni qabul qilish va topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 10 kun ichida to'lashi shart.

2.7. Yuridik manzil, bank yoki boshqa rekvizitlarni o'zgartirganda, tashkilot nomini o'zgartirishda tomonlar uch kun ichida bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

3. "Buyurtmachi" ning huquq va majburiyatlari.

3.1. "Buyurtmachi" "Pudratchi" tomonidan tuzilgan shartnoma shartlaridan chetga chiqishlar yoki ishdagi kamchiliklarni aniqlaydi va ushbu shartnomada belgilangan tartibda ularni bartaraf etishni talab qiladi.

3.2. "Buyurtmachi" ushbu shartnoma bo'yicha bajarilgan ish haqini ishni qabul qilish va topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 10 kun ichida to'lashi shart.

3.3. Yakuniy to'lov "Bajarilgan ishlar dalolatnomasi" imzolanganidan keyin 10 kun ichida o'tkaziladi.

3.5. Tomonlar o'zaro kelishuvga binoan ishlarning ayrim turlari va komplekslari narxini tuzatishga haqli.

4. "Pudratchi" ning huquq va majburiyatlari

4.1 "Pudratchi" shartnomada nazarda tutilgan ishlarni xisob-kitob va xarajatlar smetalariga muvofiq oz vaqtida va samarali bajarish majburiyatini oladi.

4.2. "Pudratchi" unga "Buyurtmachi" tomonidan berilgan mol-mulkning saqlanishi ta'minlamaganligi uchun moddiy javobgar boladi.

5. Tomonlarning javobgarligi.

5.1. Tomonlar ushbu bitimni amalga oshirishda "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari to'g'risida" gi qonunlarga amal qilish majburiyatini oladilar.

6. Qoshimcha shartlar.

6.1. Ushbu shartnomani bekor qilish va unga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek kelishmovchiliklarni xal qilish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6.2. Xisob-kitob buyicha ishlarning qiymati quyidagi xollarda oshishi yoki kamayishi korib chiqilishi mumkin:

6.2.1. "Pudratchi"ning ortacha soatlik ish xaqining ozgarishi.

6.3.2. "Pudratchi" ning boshqa ishlab chiqarish xarajatlarining %lari ozgarishi.

6.3.3. Ijtimoiy sug'urta badallarining foyzi ozgartirilsa.

6.4. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha barcha mumkin bo'lgan da'volar tomonlar tomonidan da'vo olingan kundan boshlab 30 kun ichida ko'rib chiqilishi kerakligini belgilaydi.

6.5. Tomonlar ortasida kelishmovchiliklar Nizomlar asosida xal qilinadi.

6.6. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuziladi va imzolangandan so'ng bir hil yuridik kuchga ega bo'ladi.

YURIDIK MANZILLAR

"BUYURTMACHI"

"PUDRATCHI"

QO'NG'IROT MTU UK QO'NG'IROT ELEKTR TA'MINOTI MASOFASI

Manzil: _____

Bank: _____

X/R: _____

MFO: _____

STIR: _____

OKED: _____

Tel: _____

Manzil: Qo'ng'irotdumani, O'zbekiston ko'chasi №4

Bank: O'zMilliy bank Qo'ng'irotdumani filiali

X/R: 20 210 000 600 283 291 001

MFO: 00450

STIR: 200365008

OKED: 49200

Tel: (8-361) 312-21-85

_____ **A. T. Mamatxanov**